

“Tabarruk tarixiy ma’vo”

Chor Bakr avliyolarining tarixi va ularning
bunyodkorlik faoliyati

Bibliografik qo'llanma




2026 yil

Buxoro O‘zbekistonning qadimiy madaniy maskanlaridan biri. Uning tarixi, madaniyati O‘zbekistonda yashovchi barcha xalqlar o‘tmishining bir bo‘lagi hisoblanadi. Alohida olingan bir qadimiy hudud o‘tmishini O‘zbekiston tarixi doirasida maxsus o‘rganish O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi.

Chor Bakr me‘moriy majmuasi – Buxoroning Sumitan mavzeidagi me‘moriy yodgorlik (XVI—XIX-asrlar). Shu yerda yashab o‘tgan mashhur to‘rt shayx ya‘ni Chor Bakr nomi bilan bog‘liq. Majmua O‘zbekiston moddiy va madaniy me‘rosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan.

Abu Bakr Axmad ibn Xoja Sa‘d Yamaniy (9-asr oxiri – 971) – Buxoroda tug‘ilgan. Uning otasi Xoja Sa‘d Yamaniy imom Husaynning Zaynulobidin ismli o‘g‘lining farzandi bo‘lib, u Buxoroga Ali ibn al-Husayn bilan birgalikda kelib ketgan (9-asrning so‘nggi choragi). Narshaxiyning yozishicha, Somoniylar amiri Ismoil Somoniy unga Buxoro yaqinidagi Jo‘yi Mo‘liyon mavzeidagi serhosil yerlarning katta qismini vaqf qilib bergan. Xoja Sa‘d Buxoro atrofidagi Sumitan qishlog‘ida chorbog‘, bog‘, sardoba, tegirmon, hovuz va boshqa binolar barpo etib, bu yerdan katta daromad olgan. Abu Bakr Sa‘d va uning avlodlari somoniylar davrida Buxoroda shayxulislomlik qilishgan. Abu Bakr Sa‘d otasi vafot etgach, uning o‘rniga Ismoil Somoniyning piri hisoblangan. U fiqh maktabini tashkil etib, ko‘plab ulamolarga ustozlik qilgan. Abu Bakr Muhammad ibn Fazl ibn Ja‘far al-Buxoriy (9-asrning 2-yarmi — 937) — Imom Ja‘far as-Sodiq avlodidan. Somoniylar davrida Buxoroga kelib qolgan. Uning «Musnadi Fazl» kitobi ayniqsa mashhur bo‘lib, bu asar Chingizxon Buxoroni bosib olganda yondirib yuborilgan.



Abu Bakr Muhammad ibn Hamid (9-asrning 2-yarmi — 937) — Unga «shayx ul olam» unvoni berilgan. U Abu Bakr Fazl bilan bir yilda vafot etgan va ikkalasining qabrlari xam bir joyda yonmayon joylashgan. Imom Abu Bakr Tarxon (9-asrning 2-yarmi — 945) — «Kitobi Mullazoda» asarida yozilishicha, u «Jome’ va musnad» kitobini yozgan.

Sumitan qishlog‘i Xoja Abu Bakr Sa‘d mozori oldiga Buxoro xoni shayboniy Abdullaxon II tomonidan 1559-yilda xonaqoh, masjid, madrasa va katta bog‘dan iborat me‘moriy majmua barpo etilgan, keyingi asrlarda yana qo‘shimcha binolar qurilib, atrofi bog‘larga aylantirilgan. Mazkur me‘moriy majmua uchun Abdullaxon II 70 ming tilla sarflagan. Majmuadagi xonaqoh bo‘lib, uch tomonida eshik mavjud. Bino peshtoqi uch qavatli, ikki hujradan iborat bo‘lib, gumbazli xona va peshtoqdan iborat. Xonaqoh qibla

tomonida mehrob mavjud. Xonaqoh gumbazi Arki duzi uslubida qilingan. Xonaqohning peshtoqida „Baqara“ surasining 61-62-oyatlari keltirilgan. Peshtoqining 20 metr, poydevori esa 12 metrdan tashkil topgan. Chor Bakr me'moriy majmuasidagi madrasa oliy toifadagi madrasalardan biri hisoblangan. 1950, 1971, 1999-yillarda madrasada ta'mirlash ishlari olib borilgan. Majmuadagi masjid hashamatli bo'lib, peshtoq qismida hujralari mavjud. Masjid peshtoqida „Al-isro“ surasi keltirilgan. Masjid eshiklari esa Buxoroning qayrag'och daraxti yog'ochidan ishlangan. Majmuadagi minora 1890-yilda Mirzo Hoji Jo'yboriy tomonidan tiklangan bo'lib, oldingi minora poydevori ustiga qurilgan. Majmuadagi qadamjoning maydoni 40 gektar bo'lib, qabriston qismi 12 gektar maydonnga ega. Chor Bakr me'moriy majmuasida Sa'dulla Xoji xarizarisi ham bo'lib, xonaqoh janubida joylashgan. Xazira yon tomonlarida 3 tadan hujralar mavjud. Xazira ichkarisida sog'ona va qabrlar mavjud. Bundan tashqari majmuada Akobir Xoja xazirasi, Nasriddin Xoja xazirasi, Abduaziz Xoja xazirasi, Atoullo Xoja xazirasi, Zaynab Sulton xonim xazirasi, Obid Xoja xazirasi, Poshshooyim xazirasi, Sa'dulla Xoja xazirasi va boshqa xaziralar ham mavjud.



Majmuadagi xonaqoh gumbazli xona va peshtoqdan iborat. Peshtoq bezagida koshinkori naqshlar va yirik kufiy yozuvlar, ikki yon qanotida guldastalar bor. Ichki bezagida ganchkorlik va qirma namunalari uchraydi. Madrasa peshtog'i kengroq, dahanasi uch ravoqqa bo'lingan. Kitobasi arabiy yozuvdan iborat. Darsxona to'rtburchak tarxli, gumbazli, burchaklari hujralarga tutashgan bo'lib, yon tarzlari qo'shqavat ravoqlar qatorini takrorlaydi. Yozlik masjid maydon sahnining to'rida madrasa va xonaqoh orasida joylashgan. Peshtog'ining 2 qanoti qo'shqavatli hujralardan iborat. Peshtoq oldidagi supa sahnidan namozgoh sifatida foydalanilgan. Mo'jaz minora me'moriy majmua markazida joylashgan.

Tarixiy rivoyatlarga qaraganda, Chor Bakrlarning shajaralari Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga borib taqaladi. Tarixchi Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" nomli kitobida keltirgan ma'lumotga ko'ra, 889 yilda Ali ibn al-Husayn Xurosondan o'tib, Amudaryo bo'ylab Buxoroga keladi. Amir Ismoil Somoniy u kishini juda yaxshi kutib oladi. Ali ibn al-Husayn bilan birga o'sha mashhur Chor Bakrlar – Abu Bakr Sa'd Yamaniy, Abu Bakr Homid, , Abu Bakr Fazl ibn Ja'far, Abu Bakr Tarxonlar ham bu quyoshli yurtga tashrif buyurib, bir umr shu yerda qolib ketadilar. Ja'far va Ali avlodidan bo'lmish Chor Bakrlar Buxoro shohi atrofida jipslashib, ilmu irfonning targ'ibotiga katta hissa qo'shadilar. Tarixiy manbalarda aytilishicha, Buxoro Amiri Ismoil Somoniy Chor Bakr avliyolariga behisob yerlarni vaqf qilib bergan. Ular yesa vaqf yerlaridan keladigan daromadlarni yel-ulusga tarqatgan, yurtni obodonlashtirish uchun sarflagan. Boshpanasizlarga boshpana qurib bergan, tolibi ilmlarga ilm

o'rgatgan, adashgan kimsalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatgan, bemorlarga, yetim-yesirlarga xolis xizmat qilgan, bir so'z bilan aytganda Olloh rizosini topish maqsadida, xalqqa beminnat xizmat qilganlar. Ming yillar davomida Chor Bakr avlodlari Buxoroda katta nufuzga yega bo'lib, bu yerlarning ilmu ma'rifati, ma'naviy hayotida ishtirok yetganlar. Buxoro hukmdorlari ular bilan doim hisoblashgan. Qiyinchilik paytlarida maslahat olganlar. Yurtning tinchligi va osoyishtaligi uchun kurashda ularning yordamlariga suyananlar.

Sumitandagi Chor Bakr majmuasi bir-biriga tutashib ketgan oilaviy xazira va dahmalardan iborat bo'lib, ularning old tomoni peshtoqlar va hujralar husn berib turuvchi yaxlit devor bilan o'ralgan. Chor Bakr nomi bilan mashhur bu majmua O'rta Osiyo me'morchiligining yeng ajoyib namunalaridan hisoblanib, unda XVI-XVII asr me'morchiligining Buxoro maktabi usullari yaqqol o'z ifodasini topgan.

Chor-Bakr nekropolida maqbaralar qurilmagan, bu yerda XVI asr boshlarida me'moriy ko'rinishi shakllangan monumental dafn inshootlari –xazira keng tarqalgan. Majmuaning markazi besh xil qismdan iborat ansamblidir. Kichik madrasa va masjid o'ziga xos gumbazli inshootlarga ega. “U” harfi shaklida joylashtirilgan uchta bino o'ziga xos hovlini tashkil qiladi. Bu hovli oldidagi markazda kichik minora joylashgan. Majmua hovuz bilan tugallanadi. Devor va ravoqlarning old tomon devorlari o'sha davrga xos figurali tosh va naqshlar bilan bezatilgan. XX asr boshlarida binolar majmuasiga Buxoroning mashhur Kalon minorasiga o'xshab ketadigan kichik minora qo'shilgan. Nekropolning shimolida XVI asrda qurilgan katta bog' bor. Bu yerdamevali daraxtlardan tashqari sarv, tol, qarag'ay, chinor, xushbo'y atirgullar o'sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ражабов, Қ. Иноятлов С. Бухоро тарихи. Тошкент : Тафаккур нашриёти. – 2016. – 460 б.
2. Ҳусенов, С. Чор Бакр. Тошкент : Шарқ нашриёти. – 2001. – 144 б.
3. Narshaxiy, Buxoro tarixi. – Тошкент : Шарқ нашриёти. – 2002. – 144 б.
4. Yo'ldoshev, N., Qurbonov H. Buxoro shahri va uning atrofidagi ziyoratgohlar tarixi Buxoro : Шарқ нашриёти. – 2001. – 144 б.
5. Rajabov, Q. Buxoro tarixi. Toshkent : Tafakkur nashriyoti. – 2016. – 460 b.
6. Husenov S, Rajabova I. Chor Bakr. Toshkent : Sharq nashriyoti. – 2001. – 144 б.
7. Аҳмедов, Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент : Ўқитувчи. – 1994. – 74 б.
8. Муҳаммаджонов, А. Ўзбекистон тарихи. Тошкент : Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – 2004. – 452 б.
9. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века. – Ташкент : Фан. – 2012. – 35 б.
10. Мирзакулов, Б. Бухоро тарих зарварақларида.1-китоб. –Тошкент : Lessor Press. – 2016. –411б.
11. Мирзакулов, Б. Бухоро тарих зарварақларида.2-китоб. –Тошкент : Lessor Press. – 2016. –411б.

12. Ubaydullaev, O'. Vatan tarixi . Ikkinchi kitob. – Toshkent : Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – 2016. – 211 b.
13. Ражабов, Қ. Иноятон С. Бухоро тарихи. – Toshkent : Tafakkur. – 2016. – 361 б.
14. Муҳаммаджонов, А. Ўзбекистон тарихи (IV асрдан XVI аср бошларигача). – Toshkent : Гафур Гулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи. – 2004. – 74 б.
15. Тўраев, Н. Бухоро обидалари ва Жўйбор хўжалари // Бухорои шариф 2500. - № 4. - Маънавият нашрлари, 1997. – Б. 12.

16. Vamberi, H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent : G'afur G'ulom nashriyoti. – 1990. – 96 b.
17. Muhammadjonov, A. Qadimgi Buxoro Toshkent : Fan nashriyoti. – 1991. – 51 b.
18. Barakaev, J. Buxoro tarixi Toshkent : O'qituvchi nashriyoti. – 1991. – 143 b.
19. Aliev, S. Buxoroda bitilgan baytlar Toshkent : Gafur Gulom nashriyoti. – 1992. – 113 b.

Tuzuvchi : Z. Rajabova